

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## ABDULLA SHER IJODIDA BAG‘ISHLOV SHE’RLAR

Adhambek Alimbekov,  
TDSHU professori

*Annotatsiya.* Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Sherning bag‘ishlov she‘rlari va shoir shaxsiga bag‘ishlangan bitiklari xususida so‘z yuritiladi. Shoirning “Navoiy sog‘inchi”, “Muqimiy”, “Cho‘lpon”, Oybek, “Hamid Olimjon”, “Ziyorat” (Abdulla Qahhorga bag‘ishlangan), “Ozor”, “Shoir”, “Shayxzoda”, “Ruh”, “Ma‘ruf Jalil”, “Matnazar Abdulhakim”, “Bayron”, “Sergey Yesenin”, “Ikki she‘r”, “She‘riyat aravasi”, “Shoirlar”, “Yosh shoir do‘stlarimga”, “Shoir haqida ballada” kabi she‘rlarida ijodkor obrazining yaratilishi haqida fikr bildiriladi. She‘rlarda shoir obrazining qanday yoritilgani tahlil qilinadi.

*Kalit so‘zlar:* she‘riyat, traditsiya, bag‘ishlov, Muqimiy, Oybek, Shayxzoda, general Otello, tushkun shoir, ijodkor obrazi, tovushning rangi, qop-qora g‘am, dakki, siyrat, zamonasoz, ruhiy g‘olat, sarkazm.

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Sher o‘zbek she‘riyatida o‘z ovozigaga ega bo‘lgan shoirlardan. Uning ijodi mavzu jihatidan rang –barangligi bilan ham ajralib turadi. Abdulla aka ijodida she‘riyat, shoir shaxsiga bag‘ishlangan she‘rlar anchagina, aytish mumkinki, alohida bir turkum. Bu shoirning ijodga, ijodkor shaxsiga munosabatini ko‘rsatishi va ayni paytda o‘zini taftish qilish, o‘z tiynatini siyratida ko‘rsata oldimi-yo‘qmi shuni tasvirlash, eng asosiysi, haq so‘zni aytish jarayonidir. Shuning uchun ham Abdulla Sher bitiklarida shoirlar siymosi o‘ziga xos aksini topgan. “Shoir pargoniga Yer kurrasini sig‘dirolgan muhandisdir”- deb bilgan Abdulla Sherning mumtoz adabiyotimiz vakillari, ustoz deb bilganlari va zamondosh shoirlar haqidagi yozmalarida shoir shaxsi, ijod mashaqqatini qanday tasavvur etishi yaxshi ifodalangan. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat, Oybek, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Usmon Nosir, Asqad Muxtor va boshqa ijodkorlar, san‘atkorlarga bag‘ishlangan she‘rlarida buning namunalari ko‘ramiz. Bu yerda shoir shaxsiga munosabat, uning qanday tasvirlanishi muallifning ichki olamidanda kelib chiqadiki, bu muallifning o‘z shaxsiyati haqida ham yaxshi ma‘lumot beruvchi manba bo‘lib qoladi. “Muqimiy” she‘rida “Yo ustoz! Naqadar sizga o‘xshashman! So‘zga jonni berdim tanni poralab” misralari shunchaki yozilmagan.

Usmon Nosirga bag‘ishlangan she‘rdagi nidoga quloq tuting:

*Yuragimdan o‘zga do‘stim yo‘q,  
Yovlarim ham chiqmish yodimdan.  
Men asridan sachragan bir cho‘g‘,  
Mensiz yonar olisda gulxan.*

*Usmon Nosirning olov shoirligi, inson sifatidagi jihati, qalban yolg‘izligi yaxshi ko‘rsatilgan.*

## “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

“Navoiy sog‘inchi”, “Muqimiy”, “Cho‘lpon” , Oybek, “Hamid Olimjon”, “Ziyorat” (Abdulla Qahhorga bag‘ishlangan), “Ozor”, “Shoir”, “Shayxzoda”, “Ruh”, “Ma‘ruf Jalil”, “Matnazar Abdulhakim”, “Bayron”, “Sergey Yesenin”, “Ikki she‘r”, “She‘riyat aravasi”, “Shoirlar”, “Yosh shoir do‘stlarimga”, “Shoir haqida ballada” kabi she‘rlarida Abdulla aka ustozlari va yaqindan bilgan safdoshlari siymosini yaratishga harakat qiladi. “So‘nggi darvish” turkumidagi she‘rlardan biridagi ustoz Oybek tasviriga qarang:

*Ko‘zlarida bir sehr yonar,  
Kuylab turar hatto qoshlari,  
Gar tikilsang, qalbda uyg‘onar  
Navoiyning maslakdoshlari.*

Bunda shoirning suvrati ham siyrati ham ko‘rsatilgan. Oybekning “hatto qoshlari” kuylab turishini o‘quvchida his qiladi, ustozning siymosini ko‘z olidiga keltiradi. Yoki «Hamid Olimjon» she‘rida vatan taqdirining berilishini ko‘ring:

*Garchand shodlik kuychisi degan  
Nom olsa-da Hamid Olimjon,  
Yuragida qon yig‘lar ekan  
Tuni bo‘yi qul O‘zbekiston.*

Shuningdek Rauf Parfi, Tilak Jo‘ra bag‘ishlangan she‘rlar haqida ham shunday fikrlarni aytish mumkin. A.Sherning bag‘ishlov she‘rlardagi umumiy jihat muallifning tasvirlanayotgan siymonadi boshqalar ilg‘amagan qirralariga e‘tibor tortishidir.

Abdulla Sher bag‘ishlov she‘rlariga ko‘pincha bag‘ishlanmish shaxsning nomini qo‘ymaydi. Uning shaxsiyatida ko‘rgan mohiyatni sarlavhaga chiqaradi, masalan, ustoz deb bilgan Maqsud Shayxzoda xotirasiga bag‘ishlangan “Ruh” she‘ri. Unda Abdulla akaning Maqsud Shayxzodaga bo‘lgan o‘zgacha bir mehrini tuyamiz.

She‘rda Shayxzodaning boshidan kechirganlarini zuhur etuvchi shunday misralar bor:

*Shomang-shoshmang! Tosh qo‘ymangiz ustimga,  
U og‘irliq kilur bugun jismimga,  
Tiriklikda xo‘p toshlarni ko‘tardim,  
Toshlar qadar ko‘zyoshlarni ko‘tardim!*

Mana bu, Shayxzodaga bag‘ishlangan g‘azaldan olingan baytda esa, Abdulla Sher ustoz badiiy mahoratini undan-da ta‘sirli satrlarda beradi:

– *Bu ne rassom, tovushning rangini chizmish?*  
– *Bu shoirdir, xayol ohangini chizmish.*

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Buyuk o‘zbek aktyori Abror Hidoyatov xotirasiga bag‘ishlangan “General Otello” she’rida shoir Otelloning fojiaviy muhabbatiga, shaxsiga murojaat qilib, sizni falsafiy fikrlashga undaydi. Bu she’r tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan she’rlar ichida shoirona tuyg‘ularning eng yuksak pardalarda sarbaland kuylanganligi bilan ajralib turadi. Otello jinoyat qildi, nihoyatda ustalik bilan to‘qilgan quruq tuhmat to‘riga ilinib, pokdomon Dezdemonani ham, o‘zini ham o‘ldirdi. Bu ishonuvchan, oq ko‘ngil muhabbat qurboni ustidan oddiy sudlov o‘tkazib bo‘lmaydi. Shu bois uni faqat yurak hibsga olishi va yurak sudga tortishi mumkin. Otello taqdiriga bunday favqulodda badiiy mantiqqa asoslangan munosabat nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham kamdan-kam shoirga nasib etadigan shoirona topilma desak yanglishmagan bo‘lamiz. Shuning uchun ham Abdulla Sher tomonidan bu fojiiy muhabbat misolida berilgan g‘amning rangi, o‘zligi o‘zini o‘ldirgan ishonchning mungli jarangi bir umr tasavvuringizda saqlanib qoladi:

*General! Siz – oq qalb, qop-qora g‘amsiz!  
Siz – na qaysar rashku na o‘lik quvonch  
Va na muhabbatga so‘nggi motam! Siz –  
O‘zligi o‘zini o‘ldirgan Ishonch!  
Bu hukm – qoralash, nohaqlik emas,  
Yoki kamsitishmas Sizni, kechiring;  
Yurak hazratlari nomi bilan, bas,  
General Otello, men bilan yuring!*

Asqad Muxtor intellektual she’riyat yo‘nalishidagi ulkan ijodkor edi. Qator romanlar, ko‘plab she’rlar muallifining asarlari ma’noning quyuqligi bilan ajralib turadi. Uning adabiyotga, ijodkor yoshlarga ustozlik munosabati alohida diqqatga sazovor. Yoshlar ham bu bag‘rikeng, ulkan va kamtarin, nomi katta harflar bilan yozilishga loyiq Insonni ayricha muhabbat bilan yaxshi ko‘rishardi. Keyinchalik Asqad Muxtor bilan ustozu shogird bo‘lib, o‘n yil mashhur va obro‘li “Guliston” jurnalida birga ishlagan Abdulla Sher ana shunday yoshlardan edi. Abdulla aka hali talabalik paytlaridayoq, paxta dalalarida sevimli shoirining “99 miniatyura” kitobini etagi ichida tumordek asrab yurgan kezlari – 1968-yilda shunday deb yozgan edi:

*Kuyib emas, yonib borasiz  
Har manzilda cho‘g‘lar qoladi.  
Dunyo umrin yorib berasiz  
So‘zingizdan tug‘lar qoladi.*

Abdulla aka “Tushkun shoir demagin meni” misrasi bilan boshlanuvchi she’rida “Men she’r dedim agar ko‘ngilning, Suvratiga topsam chizgilar “-deya yozgandi. U shoir obrazini yaratar ekan shu mezon bilan yondashadi.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Shoir boshqa, u daryodir tashna cho‘llarda,  
Xalq qalbidan o‘tar uning muqaddas yo‘li.  
U – oq qo‘lqop bo‘lolmaydi qora qo‘llarda,  
U – millatning Alloh tomon cho‘zilgan qo‘li.

“Bashorat”, “Shoir dema, shoirman deb ko‘ksiga ursa” (“A‘zam Obidga bag‘ishlagan”) she‘rlarida buyuk shoirlarning ulug‘vorligini ta‘kidlash bilan maqtanib “shoirman deb ko‘ksiga uruvchilar”ni ham asl maqsadi manfaat ekanini ochib berilgan.

Abdulla Sher ijodkor sifatida shoir shaxsini ezgulikka xizmat qilishini, dunyoni yanada go‘zalroq bo‘lishini, yaxshilik yomonlik ustidan g‘alaba qilishida ishtirokchi bo‘lishini istaydi. Shu yo‘lda yonib ijod qilishni baxt deb biladi. Dunyoni oqartirmoq orzusi. “Shoir” she‘rida: “Oq qog‘ozga egilgan bir bosh, Oqartirmoq istar dunyoni...”

Shoir qog‘oz bilan emas, butun dunyo bilan yuzma – yuz yolg‘iz qolib, ezgulik yo‘lida kurashayotgagini his qildiradi bu misralar. So‘zdan “lolalar undirishni” istagan shoir mana shu satrlarda haqiqiy shoirning siymosini berishga intilgan. Yoki “She‘riyat”da “Qiynoqlardan topgan mening oromim” misrasi Abdulla akaning she‘rga ehtiromidandir. “Haqiqiy shoir zamonning yelkasiga minib yashamaydi, balki o‘z zamonasini kerakli toshdek yelkada ko‘tarib, yangi zamonlar sari boradi” so‘zlarida Abdulla aka shoirlarning yuki qanchalik og‘irligini ham ko‘rsata olgan. Adabiyotdan uzoq kimsalarda she‘riyat nima uchun kerak degan savol bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda Asqad Muxtorning quyidagi so‘zlarini eslash o‘rinlidir.. “Odam nima uchun she‘r yozadi? Bunga javob topish mushkul. Unga xuddi shunday mushkul savol bilan javob berish mumkin: odam nima uchun sevadi. Inson qalbining aziz mulki bo‘lgan bu ikki tuyg‘u sirliligi, sehrliligi, oljanob, yorqin kuchlar bag‘ishlashi bilan o‘xshash. Ular nisbatan sekin va kam, to‘g‘rirog‘i, qiyin o‘zgaradilar, lekin har bir qalbda yangilanadilar...”

Poeziyada yangilik traditsiyalarning taraqqiyotidagi ko‘rinishidir yoki aniqrog‘i-traditsiyalarni chuqur bilish mevasidir.

Shuning uchun she‘riyatda yangilik topish oson ko‘chmaydi va har qanday izlanish va eksperimentga shu nuqtayi nazardan qarash to‘g‘ri bo‘ladi” (“She‘r-shoirlarning ijtimoiy vijdoni”. “Adabiyot gazetasi”2023.25-sentabr). Ustoz adibning bu so‘zlari yangilikni, eksperimentni yaxshi ko‘radigan Abdulla Sher ijodiga munosabatda juda qo‘l keladi.

Abdulla Sherning “She‘rga ixlos qilmagan elning” bitigida bunga o‘ziga xos tarzda javob beradi: “She‘rga ixlos qilmagan elning, Osmon bilan so‘zlashmas yeri”. Yuragi panjmurda, erk tuyg‘usidan uzoq, tili kalta. Bir so‘z bilan aytganda ko‘ngli

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

obod bo‘lmasligi yaxshi tasvirlangan. “Shoirlar yig‘lasa”, “Shoirlik manzarasi” she‘rlarida bu kayfiyat yanada yuqori pardalarda kuylanadi.

Bu turkum she‘rlarda shaxsiy manfaatini ko‘zlaydigan shoirlarga dashnom ham yetarli. “Oqim bo‘ylab xaslar bilan suzdingiz” deya “Dakki” she‘rida ba‘zi unvonparast shoirlarga shunday ta‘rif beradi: “She‘r ekdingiz yolg‘on degan jo‘yakka...Siyratlarda o‘zni otib suyakka”. Ayniqsa, “Zamonasoz shoir Dangir Dunguriy, uning shogirdi Jangir Junguriy va aldangan zamon haqida ballada” she‘rida buning yanada keskinroq namunasini ko‘ramiz:

Ustoz dedi: «Zamonaga diqqat qil,  
Uni targ‘il govmish sigir deya bil.

Shogirdiga mana shu ruhda maslahat beradigan dunguriylar, ko‘pirtirib yolg‘on gapirish, xushomadgo‘ylik, zamoni aldash, haqiqatni aytishdan qochish, o‘z manfaatini har narsadan ustun qo‘yish sabog‘ini olgan “shoirchalar” ustidan kuladi muallif. Unvon, uy, mansab, turli mukofotlar tilab olib keyin yana sharoitga moslashadiganga qarata:

Olib-olib, oxir charchat bir kuni,  
So‘ng yuz burgin: “Tanimayman, – deb, - uni!”

Ammo shundaylar aslida millatga qanchalar ma‘naviy zarar yetkazishini bilarmikinlar. Afsuski yo‘q.

“Yuklamayman yolg‘onni she‘rga” misrasini bitgan Abdulla aka shoir sifatida dashnomli gaplarni aytishga haqqi bor deb bilamiz. Abdulla Sherning ijodkor shaxsiyatiga bag‘ishlangan she‘rlarini ikki guruhga ajratish mumkin: Birinchisi haqiqiy shoirlar shaxsiga hurmat bilan yozilib, ularning ruhiyatini ochib bergan she‘rlar.

Ikkinchisi: *Sarkazm, tanbeh ruhidagi she‘r yozishdan manfaat kutadigan, madhiyaboz, “soxta” shoirlar haqidagi she‘rlar.* Har ikki guruhdagi she‘rlar shaxs ma‘naviyatining ochib berilganligi bilan ahamiyatli.

Abdulla Sher ijodidagi bag‘ishlov she‘rlar o‘tgan salafilar haqidami, zamondoshlari haqidami shoirona nigohla ularning minazi (xarakteri), o‘ziga xos jihatlari yaxshi ochib berilgani bilan ajralib turadi. Abdulla aka ijodkor shaxsiyatidagi o‘ziga xosliklarni badiiy tasvirlash bilan haqiqiy shoir qanday bo‘lishi kerak degan savolga javob beradi. Ularning tiynatini tushunishga xizmat qiladi bu esa o‘z paytida shoir ijodining mohiyatini anglashga yordam beradi. Manfaat yo‘lida maddohlik qilishmas, xalq qalbini his qilib ijod qilishga chorlaydi. Bag‘ishlov she‘rlar o‘tganlarning ruhini shod qilib, yoshlar uchun mahorat maktabi, namuna bo‘ladi. Shuningdek ijodkor adabiy merosini o‘rganishda, uning mohiyatini to‘la anglashga yordam beradigan vositadir.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Sher. Tanlangan asarlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2021.
2. Ozod Sharafiddinov. Haqiqatga sadoqat. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent-1989.
3. Yan Parandovskiy. So‘z kimyosi. “Yangi asr avlodi”. Toshkent-2022.
4. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.
5. Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports*, 1(1).
6. Rasulova, U. (2024). Insoniyat: asliyat va irsiyatning badiiy talqini. *Uzbekistan: yozıık i kultura*, 1(1), 33-45.